



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDIT LARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмуродовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLISH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	
AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	258
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA SUG'URTA ISHINI YURITISH XARAJATLARI: TAHLIL VA ANALITIK HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	265
Murodov Habibullo Qodir o'g'li	
NUKUS SHAHRI MISOLIDA MAHALLALARNING DEMOGRAFIK SIG'IMI ASOSIDA LOKAL XIZMAT KO'RSATISH OBYEKTLARINI NORMATIV LOYIHALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI.....	273
Bauetdinov Berdaq Zinatdin o'g'li	



NUKUS SHAHRI MISOLIDA MAHALLALARNING DEMOGRAFIK SIG'IMI ASOSIDA LOKAL XIZMAT KO'RSATISH OBYEKTLARINI NORMATIV LOYIHALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI



Bauetdinov Berdaq Zinatdin o'g'li
Qoraqalpoq davlat universiteti
Arxitektura kafedrası assistenti
ORCID: 0009-0009-8032-9685

Annotatsiya. Maqolada uy-joy fondini boshqarish tizimida mahallalarning demografik sig'imi va shaharsozlik iqtisodiyoti tamoyillari asosida lokal xizmat ko'rsatish obyektlarini normativ loyihalashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida aholi zichligi, turar joy tiplari va hududiy qulaylik radiuslari o'rtasidagi bog'liqliklar iqtisodiy jihatdan tahlil qilinib, "iqtisodiy sig'im radiusi" va "15 daqiqalik shahar" konsepsiyalari mahalliy sharoitga muvaffaqiyatli tatbiq etilgan.

Kalit so'zlar: normativ loyihalashtirish, demografik sig'im, lokal xizmat bozori, shaharsozlik iqtisodiyoti, bozor muvaffaqiyatsizligi, mahallaviy infratuzilma.

Аннотация. В статье исследованы вопросы нормативного проектирования объектов локального обслуживания в системе управления жилищным фондом на основе демографической ёмкости махаллей и принципов экономики градостроительства. В рамках исследования проведён экономический анализ взаимосвязи между плотностью населения, типами жилой застройки и радиусами территориальной доступности. Концепции «радиуса экономической ёмкости» и «15-минутного города» успешно адаптированы к местным условиям.

Ключевые слова: нормативное проектирование, демографическая ёмкость, рынок локальных услуг, экономика градостроительства, провалы рынка, инфраструктура махалли.

Abstract. This article examines the issues of normative planning of local service facilities within the housing management system based on the demographic capacity of neighborhoods (mahallas) and the principles of urban economics. The study economically analyzes the relationships among population density, residential housing types, and territorial accessibility radii. The concepts of the "economic capacity radius" and the "15-minute city" are successfully adapted to local conditions.

Keywords: normative planning, demographic capacity, local service market, urban economics, market failure, neighborhood infrastructure.

KIRISH

Shahar aholisining turmush sifati, jumladan, ularning kundalik ehtiyojlarini qondirish imkoniyati, ko'p jihatdan yashash hududida aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar infratuzilmasining mavjudligi, qulayligi va narxi bilan belgilanadi. Global miqyosda rivojlanayotgan mamlakatlar shaharlarida ushbu masala ayniqsa alohida ahamiyatga ega. Aholi sonining tez o'sayotgani fonida xizmatlar infratuzilmasini optimal joylashtirish ko'pincha rejali yondashuvdan ko'ra stixiyali bozor kuchlariga havola etiladi.

Olib borilgan retrospektiv tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2021–2025-yillar davomida Nukus shahrining demografik salohiyati barqaror va intensiv o'sish trayektoriyasini namoyish etdi (1-jadval).

1-jadval
Nukus shahri aholisi soni dinamikasi [1]

Yil	Soni, ming kishi.
2021	323.8
2022	329.0
2023	334.6
2024	339.2
2025	344.7

Aholi sonining shiddatli sur'atlarda ko'payishi lokal miqyosda ijtimoiy-maishiy infratuzilma tizimiga tushadigan demografik bosimni keskin kuchaytirmoqda. Shahar ma'muriy-hududiy tuzilmasidagi turli konfiguratsiyadagi mahallalar, xususan, markaziy ko'p qavatli turar-joy massivlaridan tortib, chekka hududlardagi yakka tartibdagi hovli-uylardan iborat maskanlargacha bo'lgan tizimlar o'z demografik sig'imi jihatidan bir-biridan prinsipial ravishda farqlanadi. Mazkur muammoning fundamental iqtisodiy mazmuni shundaki, xizmat ko'rsatish obyektlarining hududiy demografik parametrlarni hisobga olmasdan, faqatgina stixiyali tarzda lokalizatsiya qilinishi shahar iqtisodiyotida ikki tomonlama salbiy deformatsiyani keltirib chiqaradi.

Bir tomondan, aholi konsentratsiyasi o'ta yuqori bo'lgan nuqtalarda xizmatlarga bo'lgan ichki talabning taklifdan sezilarli darajada oshib ketishi sun'iy defitsitni va buning oqibatida iste'molchilar real daromadlari hisobiga shakllanuvchi monopol rentani yuzaga keltiradi. Ikkinchi tomondan, demografik potentsiali past va aholi tarqoq yashaydigan chekka zonalarida xizmat ko'rsatish quvvatlarining haddan tashqari ortiqcha yaratilishi talabning yetishmasligi tufayli investitsiyalarning o'zini oqlamasligiga hamda tadbirkorlik subyektlarining tizimli kasodga uchrashiga sabab bo'ladi.

Pirovardida, bozor muvozanatining bunday ikki tomonlama buzilishi makro va mikroresurslarning noratsional taqsimlanishiga olib kelib, umumiy shahar iqtisodiyoti miqyosida qayta tiklab bo'lmaydigan ijtimoiy-iqtisodiy netto-zararlar shaklida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shahar iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish obyektlarining hududiy optimalligi masalasi klassik asarlardan boshlanadi. William Alonso [2] o'zining yer rentasi nazariyasida shahar ichidagi turli xizmatlar va uy-joy uchun yer taklifini hududiy masofa funksiyasi orqali modellashtirgan. Uning modeliga ko'ra, markazga yaqinlik — xizmatlarga talab va yer rentasini bir vaqtda belgilovchi asosiy o'zgaruvchi hisoblanadi.

Richard Muth [3] Alonso modelini yanada rivojlantirib, aholi zichligi va xizmatlarga bo'lgan talab o'rtasidagi elastiklik munosabatlarini empirik tarzda ko'rsatdi. Uning asosiy xulosasi — aholi zichligining markazdan chekkaga tomon eksponensial kamayishi xizmatlar tarmoqlarining ham shunga mutanosib tarzda siyraklashuvini talab qiladi.

Jane Jacobs [4] o'zining klassik asarida kundalik lokal xizmatlarning shahar jamoalari uchun ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Zamonaviy iqtisodchi Edward Glaeser [5] tadqiqot ishida shahar zichligi bilan iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi musbat bog'liqlik amaliy ma'lumotlar asosida isbotlangan. Unga ko'ra, aholi zichligi yuqori mahallalarda lokal biznes muhiti yaxshiroq shakllanadi, chunki iste'molchilar oqimi barqaror bo'ladi.

Milliy iqtisodchi olimlardan A. Sadikov va boshqa hammualliflar [6] o'z tadqiqotlarida hududlar infratuzilmasini rivojlantirish va aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirishda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini makroiqtisodiy tartibga solish masalalarini tahlil qilgan bo'lsalar, B. Sharipov uy-joy kommunal sohasi va unga tutash xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishda iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy asoslab bergan [7]. Shuningdek, mintaqaviy infratuzilmani loyihalash va ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirish muammolari X. Kurbanov tomonidan tizimli tadqiq etilib, mahalliy xususiyatlarni hisobga olish zarurligi isbotlangan [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, tavsifiy tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik asosini Nukus shahri mahallalarida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari, O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasining demografik ma'lumotlari va xalqaro tashkilotlarning (UN-Habitat, Jahon banki) me'yoriy hujjatlari tashkil etadi.



TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda global urbanistikada ustuvor ahamiyat kasb etayotgan hududiy tashkil etish modellaridan biri — bu kundalik zaruriy xizmatlar va ijtimoiy ne'matlardan piyoda yoki ekologik transport vositalari yordamida atigi o'n besh daqiqalik masofada foydalanish imkoniyatini yaratuvchi "15-daqiqalik shahar" konsepsiyasi [9] yondashuvidir. Mazkur nazariyaning asosini yaqinlik, xizmatlar xilma-xilligi, demografik zichlik va infratuzilmaning hamma yerda mavjudligi kabi muhim tizimli tamoyillar tashkil etadi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida ushbu konsepsiya yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi, chunki global karantin tadbirlari lokal xizmatlar infrastrukturasi jamoa barqarorligidagi hal qiluvchi rolini yaqqol ko'rsatdi.

Iqtisod nazariyasida "bozor muvaffaqiyatsizligi" konsepsiyasi tashqi ta'sirlar, axborot asimmetriyasi yoki koordinatsiya mexanizmlarining izdan chiqishi oqibatida erkin raqobat tizimining ijtimoiy jihatdan maqbul muvozanatni ta'minlay olmaslik holatini ifodalaydi. Mazkur deformatsiya lokal xizmat ko'rsatish sohasida, ayniqsa mahallabay tadbirkorlik tizimida yaqqol namoyon bo'ladi. Xususiy sektor vakili yangi xizmat ko'rsatish nuqtasini tashkil etishda ko'pincha hududdagi aholi zichligining istiqboldagi dinamikasi va real xarid qobiliyati to'g'risidagi tizimli ma'lumotlarga ega bo'lmaydi, bu esa qaror qabul qilishda axborot yetishmovchiligini yuzaga keltiradi. Natijada investitsiya resurslarining noto'g'ri yo'naltirilishi tufayli xizmat ko'rsatish quvvatlari yo aholi zich joylashgan markaziy massivlarda haddan tashqari to'planib ketadi yoki aholi tarqoq yashaydigan periferiya hududlarida chuqur defitsitni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy-iqtisodiy resurslarning hududiy jihatdan bunday nomutanosib taqsimlanishi shahar iqtisodiyotida umumiy foydalilik darajasining pasayishiga va qayta tiklab bo'lmaydigan tizimli yo'qotishlarga sabab bo'ladi.

Turar-joy mahallalari darajasida aholining maishiy xizmatlardan qoniqish darajasini belgilovchi eng sezgir iqtisodiy indikator — bu xizmatlarning narxi va sog'lom raqobat muhitining mavjudligidir. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Nukus shahrining chekka hududlarida aholi tomonidan eng ko'p uchraydigan va tizimli ravishda shikoyat qilinadigan muammo — bu xizmatlar va tovarlar narxining asossiz ravishda yuqoriligidir. Ushbu fenomen bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari nuqtayi nazaridan quyidagi tashkiliy-tuzilmaviy omillar bilan izohlanadi:

1. Shahar markazida servis shoxobchalarining zichligi yuqoriligi sababli kuchli raqobat muhiti mavjud va bu narxlarning tabiiy ravishda pasayishini ta'minlaydi. Biroq chekka mahallalarda muayyan xizmat turi bo'yicha faqat bir yoki ikkita subyektlar faoliyat ko'rsatadi. Natijada ushbu tadbirkorlar raqobatning yo'qligidan foydalanib, aholi uchun sun'iy ravishda yuqori monopol narxlarni shakllantiradi. Aholining markazga borib kelish uchun sarflaydigan transport xarajati va vaqtini inobatga olib, mahalla ichidagi qimmat xizmatga ko'nikishdan boshqa chorasi qolmaydi;

2. Chekka mahallalardagi kichik servis subyektlari o'z faoliyatlari uchun zarur bo'lgan xomashyo va materiallarni to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchidan emas, balki bir nechta vositachilar (ulgurji bozorlar) orqali sotib oladilar. Kichik hajmlarda xarid qilinganligi va logistika xarajatlari yuqoriligi sababli mahsulotning boshlang'ich tannarxi baland bo'ladi va bu yakuniy iste'mol narxiga yuklanadi;

3. Mahallabay xizmatlar bozorida shaffoflik darajasi past. Aholi qaysi mahallada yoki shoxobchada xizmatlar arzonroq yoki sifatliroq ekanligi haqida tezkor va ishonchli ma'lumotga ega emas. Axborotning yopiqligi tadbirkorlarga narxlarni o'z xohishlariga qarab o'zgartirish imkonini beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan salbiy tendensiyalarni bartaraf etish va mahallabay xizmatlar bozorida sog'lom raqobatni rivojlantirish uchun ma'muriy (juzolash yoki narxni majburiy belgilash) usullari mutlaqo samara bermaydi. Aksincha, bunda quyidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishga solish zarur:

- chekka mahallalarda defitsit bo'lgan xizmat turlarini ochmoqchi bo'lgan tadbirkorlarga yer, bino va soliq imtiyozlarini tizimli taqdim etish orqali ushbu lokal bozorga yangi subyektlarning kirib kelishini rag'batlantirish (bu monopoliyani tabiiy ravishda sindiradi);

- Nukus shahri bo'yicha mahallabay xizmatlar va ularning narxlari monitoringini aks ettiruvchi lokal raqamli platforma yoki mobil ilovalarni rivojlantirish. Bu iste'molchi va ijrochi o'rtasidagi axborot asimmetriyasini yo'qotib, narxlarning shaffoflashishiga va raqobatning kuchayishiga olib keladi.

Empirik tadqiqotimiz davomida respondentlar tomonidan bildirilgan eng muhim va strategik takliflardan biri — bu mahallalarda lokal servis obyektlarini shunchaki stixiyali emas, balki aholi soniga (demografik sig'imga) qarab normativ asosda loyihalashtirish zarurligidir. Shaharsozlik iqtisodiyoti tamoyillariga ko'ra, turar-joy massivlarida xizmat ko'rsatish majmualarining samaradorligi ularning "iqtisodiy sig'im radiusi" va "iste'molchilar kontingenti" bilan to'g'ri mutanosib bo'lishi shart.


Hozirgi kunda Nukus shahri mahallalari aholi zichligi va turar-joy tipi bo'yicha keskin farqlanadi. Markaziy ko'p qavatli uylardan iborat mahallalarda kichik makonda aholi konsentratsiyasi yuqori bo'lsa, shahar atrofidagi hovli uylar joylashgan mahallalarda aholi tarqoq joylashgan. Bu esa xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etishda yagona andozadan foydalanib bo'lmavligini, balki normativ loyihalashtirish tamoyilini tatbiq etishni taqozo etadi.

Normativ loyihalashtirish konsepsiyasining mohiyati shundan iboratki, shaharning har bir mahallasida har 1000 yoki 5000 nafar aholi soniga nisbatan bazaviy maishiy va ijtimoiy xizmatlarning minimal normativ

standartlari belgilanishi lozim. Masalan, xalqaro va milliy shaharsozlik me'yorlari tizimlashtirilganda, turar-joy majmualari ichida quyidagi makoniy masofalar va sig'im normativlari optimal hisoblanadi:

5 daqiqalik piyoda yurish masofasi (200–300 metr) — kundalik birinchi darajali ehtiyoj obyektlari (mini-marketlar, nonvoyxonalar, dorixonalar, bolalar maydonchalari);

10–15 daqiqalik piyoda yurish masofasi (500–800 metr) — davriy ehtiyoj obyektlari (maishiy xizmat ko'rsatish ustaxonalari, go'zallik salonlari, kichik sport zallari, til o'rgatish markazlari) (1-rasm).



1-rasm. Mahallalarda aholiga xizmat ko'rsatish obyektlarining hududiy joylashuvi va xizmat ko'rsatish radiuslari modeli

Agar shaharning chekka mahallalarida ushbu normativlar buzilsa yoki inobatga olinmasa, “bozor muvaffaqiyatsizligi” yuzaga keladi. Ya'ni, tadbirkor aholi soni kam yoki tarqoq bo'lgan hududda kapital sig'imi yuqori bo'lgan xizmat turini (masalan, zamonaviy sport majmuasini) ochsa, mijozlar oqimi yetishmasligi sababli tez orada bankrotlikka uchraydi. Aksincha, aholi zich joylashgan hududda xizmatlar shoxobchasi yetishmasa, sun'iy navbatlar, narxlarning qimmatlashishi va xizmat ko'rsatish madaniyatining pasayishi kuzatiladi.

Shu sababli, uy-joy fondini boshqarishda mahallalarning demografik sig'imini oldindan prognoz qilish va yangi barpo etilayotgan ko'p qavatli massivlarda birinchi qavatlardagi tijorat maydonlarining turi va quvvatini majburiy ravishda taklif etilayotgan model asosida taqsimlash tizimini joriy etish lozim. Bu yondashuv mahallabay xizmatlar bozorining stixiyali rivojlanishiga barham berib, tadbirkorlar uchun kafolatlangan lokal bozorni, aholi uchun esa yuqori ijtimoiy qulaylikni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar uy-joy fondini boshqarishda lokal xizmat ko'rsatish tizimini tizimli isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi shaharsozlikda stixiyali yondashuvlardan voz kechib, xizmat obyektlarini demografik sig'im va optimal iqtisodiy radiuslar (200–300 va 500–800 metr) asosida normativ loyihalashtirishni taqozo etadi. Ushbu makoniy mutanosiblikning buzilishi mahallabay xizmatlar bozorida monopol narxlar, sun'iy defitsit va tadbirkorlar bankrotligi kabi tizimli bozor muvaffaqiyatsizliklariga olib kelib, shahar iqtisodiyotida qayta tiklanmaydigan netto-zararlarni keltirib chiqaradi. Muammoning strategik yechimi sifatida yangi qurilayotgan turar-joy massivlarining birinchi qavatlaridagi tijorat maydonlarini aniqlangan mahalliy defitsit normativlari asosida majburiy taqsimlash tizimini joriy etish zarur. Mazkur iqtisodiy-makoniy mexanizm axborot asimmetriyasini kamaytirib, tadbirkorlar uchun kafolatlangan lokal bozorni, aholi uchun esa yuqori ijtimoiy-iqtisodiy qulaylikni ta'minlaydi hamda shahar iqtisodiyotining muvozanatli rivojlanishiga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
2. Alonso W. Location and Land Use: Toward a General Theory of Land Rent. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1964. — 204 p.
3. Muth R. F. Cities and Housing: The Spatial Pattern of Urban Residential Land Use. — Chicago: University of Chicago Press, 1969. — 355 p.
4. Jacobs J. The Death and Life of Great American Cities. — New York: Random House, 1961. — 458 p.
5. Glaeser E. L. Triumph of the City: How Our Greatest Invention Makes Us Richer, Smarter, Greener, Healthier, and Happier. — New York: Penguin Press, 2011. — 338 p.
6. Sadikov A. M. va boshq. Mintaqaviy infratuzilmani rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va ularni hal etish yo'llari. — Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2018. — 180 b.
7. Sharipov B. U. Uy-joy kommunal sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. — Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020. — 164 b.
8. Kurbanov X. A. Mintaqalarda xizmat ko'rsatish sohasi va infratuzilmani rivojlantirishning strategik yo'nalishlari. Ilmiy monografiya. — Toshkent: Ilm-ziyo, 2021. — 210 b.
9. Moreno C., Allam Z., Chabaud D., Gall C., Pratlong F. Introducing the "15-Minute City": Sustainability, Resilience and Place Identity in Future Post-Pandemic Cities // Smart Cities. — 2021. — Vol. 4, № 1. — P. 93–111. DOI: 10.3390/smartcities4010006.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>